Abstract. The economic and financial conditions for financing transport and logistics infrastructure are comprehensively analyzed, with particular emphasis on its role in economic development, the need for adequate financing, and the macroeconomic and institutional factors affecting this process. The advantages and limitations of major financing sources, including state budget funds, public-private partnership mechanisms, foreign direct investment, loans from international financial institutions, and private capital, are examined. The factors affecting the efficiency of transport and logistics infrastructure financing are assessed, while the importance of modern digital technologies, innovative financial instruments, and sustainable investment approaches is scientifically substantiated. Based on an analysis of national and international experience, scientific and practical conclusions are formulated regarding the rational use of financial resources, enhancement of investment attractiveness, and effective management of infrastructure projects.

Keywords: transport and logistics infrastructure, financing, economic and financial conditions, investment, state budget, public-private partnership, foreign direct investment, financial instruments.

Аннотация. Проведён комплексный анализ экономических и финансовых условий финансирования транспортно-логистической инфраструктуры с акцентом на её роль в экономическом развитии, необходимость финансирования, а также макроэкономические и институциональные факторы, влияющие на данный процесс. Рассмотрены преимущества и ограничения основных источников финансирования, включая средства государственного бюджета, механизмы государственно-частного партнёрства, прямые иностранные инвестиции, кредиты международных финансовых институтов и частный капитал. Оценены факторы, влияющие на эффективность финансирования транспортно-логистической инфраструктуры, и научно обоснована значимость современных цифровых технологий, инновационных финансовых инструментов и подходов к устойчивому инвестированию. На основе анализа национального и международного опыта сформулированы научно-практические выводы по рациональному использованию финансовых ресурсов, повышению инвестиционной привлекательности и эффективному управлению инфраструктурными проектами.

Ключевые слова: транспортно-логистическая инфраструктура, финансирование, экономические и финансовые условия, инвестиции, государственный бюджет, государственно-частное партнёрство, прямые иностранные инвестиции, финансовые инструменты.

KIRISH

Transport-logistika infratuzilmasi mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi strategik tarmoqlardan biri hisoblanadi. Global iqtisodiy integratsiya, xalqaro savdo hajmining ortishi hamda transport xizmatlariga bo'lgan talabning o'sishi mazkur sohani zamonaviy talablar asosida rivojlantirishni taqozo etmoqda.



Transport-logistika infratuzilmasining samarali faoliyat yuritishi nafaqat yuk va yo'lovchi tashish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlaydi, balki hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Mazkur infratuzilmani izchil rivojlantirish katta hajmdagi moliyaviy resurslarni jalb etishni talab qiladi. Shu sababli transport-logistika infratuzilmasini moliyalashtirishning iqtisodiy-moliyaviy shart-sharoitlarini chuqur tahlil qilish, mavjud moliyalashtirish manbalari va mexanizmlarining samaradorligini baholash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Davlat byudjeti mablag'lari, xususi investitsiyalar, xalqaro moliya institutlari resurslari hamda davlat-xususi sheriklik mexanizmlaridan oqilona foydalanish infratuzilma loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim omil hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Transport-logistika infratuzilmasining iqtisodiy samaradorligi va uni rivojlantirish masalalari mahalliy tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan. M. Jalolova, U. Sangirova, I. Yakubov, H. Rahimov O'zbekiston transport tizimi va logistikasining iqtisodiy samaradorligini tahlil qilib, logistikaning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rnini, transport-logistika tizimini rivojlantirish tendensiyalari hamda tranzit salohiyatidan samarali foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratganlar [1]. M. Yakubov va N. Abulov O'zbekiston transport logistikasining rivojlanish salohiyatini o'rganib, samarali transport-logistika tizimining faoliyat yuritishi mamlakatning iqtisodiy makonga integratsiyalashuvi, tovar va xizmatlarning erkin harakati hamda tashqi savdo raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ekanini asoslaganlar [2].

J. Ekhsanov va E. Khoshimov transport-logistika xablarini shakllantirish istiqbollarini tadqiq etib, transport sohasining uzoq muddatli rivojlanishini prognozlashda farsayt yondashuvi, ssenariylarni ishlab chiqish va ekspert baholash usullaridan foydalanish imkoniyatlarini yoritganlar [3]. I. Mavlanov Markaziy Osiyoda logistika va savdo kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalarini tahlil qilib, transport kommunikatsiyalarini takomillashtirish xalqaro savdoni kengaytirish, eksport hajmini oshirish va mintqa mamlakatlarining tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini yaxshilash bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlagan [4]. Mazkur yondashuvlar transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirishda transport koridorlari, logistika markazlari va xalqaro savdo yo'nalishlarining iqtisodiy ahamiyatini belgilash imkonini beradi.

Mavjud ilmiy tadqiqotlar transport-logistika infratuzilmasining iqtisodiy samaradorligi, tranzit salohiyati, logistika xablarini tashkil etish va xalqaro transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalarini keng qamrab olgan. Shu bilan birga, ushbu ilmiy yondashuvlar transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish jarayonlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, investitsiyalarni samarali jalb etish va moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bilan o'zaro bog'liq holda tadqiq etish uchun ilmiy asos yaratadi. Shu jihatdan transport-logistika infratuzilmasini moliyalashtirishning iqtisodiy-moliyaviy shart-sharoitlarini kompleks baholash mazkur yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarning mantiqiy davomi hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining transport sohasi bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlari, Transport vazirligi ma'lumotlari, xalqaro moliya institutlarining ochiq axborot resurslari hamda transport-logistika infratuzilmasini moliyalashtirishga oid ilmiy manbalar tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida transport turlari bo'yicha yuk tashish, yuk aylanmasi, yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi ko'rsatkichlari, shuningdek, infratuzilmani moliyalashtirish bilan bog'liq iqtisodiy-moliyaviy ma'lumotlar yig'ildi va tizimlashtirildi. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda statistik, qiyosiy va tarkibiy tahlil usullaridan foydalanildi. Transport ko'rsatkichlarining yillar bo'yicha o'zgarish dinamikasi qiyosiy tahlil qilinib, transport turlarining umumiy tarkibdagi ulushi va rivojlanish tendensiyalari baholandi. Shuningdek, moliyalashtirish manbalari va transport-logistika ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlash orqali tegishli ilmiy xulosalar shakllantirildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Transport-logistika infratuzilmasi milliy iqtisodiyotning samarali faoliyat yuritishida, global savdo va transport oqimlarini qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. So'nggi yillarda transport tizimlarini rivojlantirish va modernizatsiya qilishga bo'lgan talab ortib, infratuzilmani moliyalashtirishning iqtisodiy-moliyaviy shart-sharoitlari yanada takomillashib bormoqda. Transport-logistika loyihalari katta kapital sarflarini talab qiladi, shu bilan birga, ular uzoq muddatli rentabellikni ta'minlash hamda mamlakatning ichki va tashqi transport tizimlari samaradorligini oshirishga qaratilgan.



Moliyalashtirish manbalari tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat byudjeti va markazlashtirilgan investitsiyalar asosiy resurslar hisoblansa-da, xususi sektor ishtiroki, jumladan, loyihaviy moliyalashtirish, bank kreditlari va davlat-xususi sheriklik shakllari iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, makroiqtisodiy omillar – inflyatsiya darajasi, foiz stavkalari, valyuta kurslarining barqarorligi, soliq va tarif siyosati – transport-logistika loyihalarining moliyaviy samaradorligini bevosita belgilaydi. Shuning uchun transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish strategiyasi nafaqat texnik jihatdan samarali, balki moliyaviy jihatdan ham barqaror bo'lishi lozim. Mazkur tahlil o'rganilayotgan mavzuning dolzarbligini, moliyaviy muhit bilan bog'liqligini va ilmiy izlanishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi.

Yuk tashish tarkibi transport tizimining samaradorligini va turli transport yo'nalishlaridagi bozor ulushini aks ettiruvchi muhim indikator hisoblanadi. 2020–2025-yillarda avtomobil, temir yo'l, quvur va havo transportlari o'rtasida yuk tashish hajmining foiz taqsimoti milliy iqtisodiyotdagi transport segmentlarining ustunligi va barqarorligini ko'rsatadi. Ushbu davrda avtomobil transportining ustunligi sezilarli bo'lib, yuk tashishning asosiy qismini tashkil etgan. Shu bilan birga, temir yo'l va quvur transportlarining ulushi barqaror saqlangan, havo transporti esa minimal qiymatda bo'lib, yuqori qo'shimcha xarajatlar va infratuzilmaviy talablarga moslashganligini ko'rsatadi (1-rasm).



1- rasm. 2020–2025-yillarda transport turlari bo'yicha yuk tashish tarkibi, foizda¹

2020-yilda yuk tashish tarkibida avtomobil transporti 90,6% ni, temir yo'l transporti 5,2% ni, quvur transporti 4,2% ni va havo transporti 0,001% ni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichlar transport tizimi tarkibida avtomobil transportining ustunligini aniq ko'rsatadi. 2021-yilda avtomobil transportining ulushi 90,3% ni, temir yo'l transporti 5,1% ni tashkil etdi, quvur transportining ulushi esa 4,6% ga oshdi, bu quvur yo'llaridan foydalanuvchi transport oqimlarining bir oz ko'payganini bildiradi. 2022–2023-yillarda avtomobil transportining ulushi barqaror ravishda 90,4–90,8% oralig'ida saqlanib, transport tarkibidagi ustun mavqeyini davom ettirdi. Temir yo'l transportining ulushi 5,1% darajasida barqaror bo'ldi, quvur transportining ulushi esa 4,1% atrofida barqarorlashdi. 2024–2025-yillarda avtomobil transportining ulushi 91,1–92,1% gacha oshdi, bu yuk tashishning markazlashuvi va qisqa masofalarga tashishga bo'lgan talabning kuchayishini ko'rsatadi. Temir yo'l va quvur transportlarining ulushi 4,8–4,1% oralig'ida bo'ldi, havo transportining ulushi esa minimal qiymatda saqlanib, uning o'ziga xos xarajatlari va infratuzilmaviy xususiyatlari bilan izohlanadi. Transport tarkibidagi ustun transport turi avtomobil transporti bo'lib, u yuk tashishning asosiy qismini tashkil etadi. Temir yo'l va quvur transportlarining ulushi barqaror, havo transporti esa o'ziga xos iqtisodiy va texnik xususiyatlari tufayli kichik segmentni qamrab oladi.

2020–2025-yillarda transport turlari bo'yicha yuk tashish tarkibi avtomobil transportining ustunligini namoyon etdi, uning ulushi 90,6% dan 92,1% gacha oshdi. Temir yo'l va quvur transportlarining ulushi barqaror bo'lib, mos ravishda 5,2–4,8% va 4,2–4,1% oralig'ida saqlanib qoldi. Havo transportining ulushi esa minimal – 0,001%


¹ <https://stat.uz/uz/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



ni tashkil etib, yuk tashish tarkibida o'ziga xos segment sifatida namoyon bo'ldi. Ushbu tarkibiy tendensiyalar transport infratuzilmasining ustuvor yo'nalishlari, iqtisodiy samaradorligi va logistika zanjiridagi markazlashuvni aks ettiradi. Natijada, transport siyosati va strategik rejalashtirish avtomobil transportining yuqori ulushini optimallashtirish, temir yo'l va quvur transportlaridan samarali foydalanish hamda havo transportini yuqori qiymatli yuklarni tashishga integratsiyalashga qaratilishi lozim.

Yuk aylanmasi transport tizimining samaradorligi va transport quvvatlaridan foydalanish darajasini ko'rsatadigan asosiy indikator hisoblanadi. 2020–2025-yillarda transport turlari bo'yicha yuk aylanmasi tarkibi quvur, temir yo'l, avtomobil va havo transportlarining iqtisodiy samaradorlikdagi o'rnini aks ettiradi. Ushbu davrda quvur transporti yuk aylanmasining yetakchi qismini tashkil etib, strategik transport yo'nalishlarida uzluksiz oqimni ta'minlagan. Temir yo'l va avtomobil transportlari yuk aylanmasida muhim rol o'ynagan bo'lsa, havo transporti o'ziga xos ulushga ega bo'lib, asosan yuqori qiymatli yoki tezkor yetkazib berishni talab qiluvchi yuklarni tashishda foydalanilgan.

2020-yilda yuk aylanmasi tarkibida quvur transportining ulushi 40,1% ni, temir yo'l transporti 35,3% ni, avtomobil transporti 24,3% ni va havo transporti 3% ni tashkil etdi. Bu davrda quvur transporti uzoq masofali yuklarni barqaror va samarali yetkazib berish orqali yetakchilik qilgan, temir yo'l esa o'rta va uzoq masofalardagi yuklarni tashishda strategik rolni egallagan. 2021-yilda quvur transportining ulushi 41,2% ga oshgan, temir yo'l transportining ulushi 32,9% ni, avtomobil transportining ulushi 25,5% ni va havo transportining ulushi 0,4% ni tashkil qilgan, bu logistika oqimlarining bir qismi quvur yo'llariga yo'naltirilganini bildiradi. 2022–2023-yillarda quvur transportining ulushi 39,3–36,3% oralig'ida shakllandi, temir yo'l transportining ulushi 33,1–35,1% oralig'ida barqarorlashdi, avtomobil transportining ulushi esa 27,2–28,3% gacha oshdi. 2024–2025-yillarda quvur transportining ulushi 36,2–36,3% ni, temir yo'l transportining ulushi 34,5–34,3% ni, avtomobil transportining ulushi 28,9–28,3% ni, havo transportining ulushi esa 0,3–0,4% ni tashkil etdi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, yuk aylanmasi tarkibida quvur transportining yetakchi mavqeyi barqaror bo'lib, uzoq masofali va strategik yuklar uchun asosiy transport yo'nalishlaridan biri sifatida qolmoqda. Temir yo'l va avtomobil transportlari ortib borayotgan transport talabini qamrab olgan, havo transporti esa o'ziga xos segmentdagi ulushini saqlab qolmoqda (2-rasm).



2- rasm. 2020–2025-yillarda transport turlari bo'yicha yuk aylanmasi tarkibi, foizda²


2020–2025-yillarda yuk aylanmasi tarkibida quvur transportining ulushi 36–41% oralig'ida bo'lib, strategik transport yo'nalishlarida yetakchi rol o'ynadi. Temir yo'l transportining ulushi barqaror ravishda 32–35% ni tashkil etib, uzoq va o'rta masofali yuklarni samarali yetkazib berishda muhim omil bo'ldi. Avtomobil transportining ulushi 24–28% gacha oshib, ichki va qisqa masofali yuklar oqimini ta'minladi. Havo transportining ulushi 0,3–0,4% ni tashkil etib, tezkor yetkazib berish va yuqori qiymatli yuklarni tashishda foydalanildi. Shu bilan birga, transport turlari o'rtasidagi yuk aylanmasi balansi strategik rejalashtirish va barqaror logistika tizimini rivojlantirishning muhimligini ko'rsatadi.

Yo'lovchi tashish hajmi transport tizimining aholiga xizmat ko'rsatish qobiliyatini, shaharlararo va mintaqaviy mobillikni hamda iqtisodiy faollikni aks ettiruvchi asosiy indikator hisoblanadi. 2020–2025-yillarda transport

2 <https://stat.uz/uz/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



turlari bo'yicha yo'lovchi tashish hajmi sezilarli o'zgarishlarni ko'rsatdi. Ushbu davrda o'tgan yilga nisbatan o'sish va o'zgarish sur'atlari transport tizimining barqarorligi, talab va taklifning o'zaro muvozanati, shuningdek, iqtisodiy va epidemiologik omillar ta'sirini aks ettiradi. Hajmning izchil oshishi transport infratuzilmasining modernizatsiyasi, transport xizmatlariga bo'lgan talabning ortishi va aholi mobilligining oshishi bilan bog'liqligini ko'rsatadi (3-rasm).



3 - rasm. 2020–2025-yillarda barcha transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish hajmi, o'sishi (kamayishi)³


2020-yilda yo'lovchi tashish hajmi 5 295,9 mln yo'lovchini tashkil etdi, o'sish sur'ati esa –12,1% bo'lib, bu avvalgi yilga nisbatan o'zgarishni bildiradi. Bu davrda COVID-19 pandemiyasi va karantin cheklavlari transport tizimi faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. 2021-yilda hajm 6 029,7 mln yo'lovchiga yetib, o'sish sur'ati 13,9% ga ko'tarildi, bu transport tizimining tiklanishi va karantin cheklavlarining yumshatilishi bilan izohlanadi. 2022-yilda hajm 6 245,3 mln yo'lovchiga oshdi, o'sish sur'ati 3,6% ni tashkil qildi. 2023-yilda hajm 6 483,7 mln yo'lovchiga yetib, o'sish sur'ati 3,8% ni ko'rsatdi. 2024-yilda 6 872,3 mln yo'lovchi tashildi, o'sish sur'ati 6% ga yetdi, 2025-yilda esa 7 284,6 mln yo'lovchi tashilib, o'sish sur'ati barqaror ravishda 6% ni tashkil qildi.

2020–2025-yillarda barcha transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish hajmi pandemiya davridagi qisqa muddatli o'zgarishdan so'ng izchil oshdi. Hajm 5 295,9 mln yo'lovchidan 7 284,6 mln yo'lovchigacha yetib, o'sish sur'atlari 3,6–6% oralig'ida barqaror bo'ldi. Bu transport tizimining tiklanish qobiliyati, transport infratuzilmasining modernizatsiyasi va aholining mobillikka bo'lgan talabining oshishini aks ettiradi. Natijada, yo'lovchi tashish hajmining barqaror o'sish sur'atini ta'minlash uchun transport xizmatlarini diversifikatsiya qilish, logistika samaradorligini oshirish hamda shaharlararo va mintaqaviy transport infratuzilmasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yo'lovchi aylanmasi transport tizimining samaradorligi, transport quvvatlaridan foydalanish darajasi va aholining mobilligini o'lchovchi muhim indikator hisoblanadi. 2020–2025-yillarda barcha transport turlari bo'yicha yo'lovchi aylanmasi hajmi va o'tgan yilga nisbatan o'sish (kamayish) sur'atlari transport tizimining barqarorligi, talab va taklifning o'zaro muvozanati hamda iqtisodiy va epidemiologik sharoitlarga sezuvchanligini aks ettiradi. Hajmning izchil o'sishi transport infratuzilmasining modernizatsiyasi, yo'lovchi oqimlarining tiklanishi va xizmat ko'rsatish samaradorligining oshishini ko'rsatadi.

2020-yilda yo'lovchi aylanmasi hajmi 118 303,2 mln yo'lovchi-kmni tashkil qilgan, o'sish sur'ati esa –15,6% bo'lib, avvalgi yilga nisbatan o'zgarishni ko'rsatadi. Bu davrda COVID-19 pandemiyasi va karantin cheklavlari transport tizimi faoliyatiga ta'sir ko'rsatgan. 2021-yilda hajm 137 024,6 mln yo'lovchi-kmga yetib, o'sish sur'ati 15,8% ni tashkil qildi, bu transport tizimining tiklanishi va cheklavlarning yumshatilishi bilan izohlanadi. 2022-yilda hajm 146 488,4 mln yo'lovchi-kmga oshib, o'sish sur'ati 6,9% ni ko'rsatdi, 2023-yilda esa 153 485,1 mln yo'lovchi-kmga yetib, o'sish sur'ati 4,8% ni tashkil qildi. 2024-yilda hajm 162 629,7 mln yo'lovchi-kmga yetib, o'sish sur'ati 6% ni tashkil etdi. 2025-yilda esa hajm 172 387,5 mln yo'lovchi-kmga yetib, o'sish sur'ati barqaror ravishda 6% ni tashkil qildi (4-rasm).

3 <https://stat.uz/uz/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



4-rasm. 2020–2025-yillarda barcha transport turlari bo'yicha yo'lovchi aylanmasi hajmi, o'sishi (kamayishi)⁴

2020–2025-yillarda barcha transport turlari bo'yicha yo'lovchi aylanmasi hajmi pandemiya davridagi sezilarli o'zgarishdan keyin izchil o'sishni ko'rsatdi. Hajm 118 303,2 mln yo'lovchi-kmdan 172 387,5 mln yo'lovchi-kmgacha oshib, o'sish sur'atlari 4,8–15,8% oralig'ida barqarorlikni saqladi. Bu transport tizimining moslashuvchanligini, yo'lovchi oqimlarining tiklanishini va xizmat ko'rsatish samaradorligining oshishini aks ettiradi. Natijada, yo'lovchi aylanmasining barqaror o'sish sur'atini ta'minlash uchun transport xizmatlarini diversifikatsiya qilish, logistika samaradorligini oshirish hamda shaharlararo va mintaqaviy transport infratuzilmasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, transport-logistika infratuzilmasini samarali moliyalashtirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, transport xizmatlari sifatini oshirish, logistika xarajatlarini kamaytirish hamda xalqaro transport koridorlari orqali tranzit salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy-moliyaviy shart-sharoitlarning chuqur tahlili transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirishda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Shu nuqtai nazardan, davlat-xususiy sheriklik, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, xalqaro moliya institutlari mablag'lari, tijorat banklari resurslari hamda kapital bozorining zamonaviy instrumentlaridan samarali foydalanish infratuzilma loyihalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, transport-logistika infratuzilmasini moliyalashtirish samaradorligi nafaqat moliyaviy resurslar hajmiga, balki institutsional muhit, investitsion jozibadorlik, normativ-huquqiy baza, loyiha boshqaruvi sifati va moliyaviy nazorat mexanizmlarining takomillashganlik darajasiga ham bevosita bog'liq. Shu sababli infratuzilma loyihalarini tanlash, baholash va monitoring qilishda xalqaro standartlar hamda raqamli boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy axborot tizimlari, elektron monitoring platformalari va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv yondashuvlari investitsiya mablag'laridan samarali foydalanish, moliyaviy xavflarni kamaytirish va loyihalarining shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.

Jahon tajribasi transport-logistika infratuzilmasini moliyalashtirishda innovatsion moliyaviy instrumentlar, jumladan, infratuzilma obligatsiyalari, yashil obligatsiyalar, islom moliyasi vositalari va barqaror investitsiya mexanizmlarining tobora keng qo'llanilayotganini ko'rsatmoqda. Ushbu tajribalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish investitsiya oqimlarini ko'paytirish, xususiy sektor ishtirokini faollashtirish hamda yirik infratuzilma loyihalarini uzoq muddatli va maqbul moliyaviy resurslar bilan ta'minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, transport-logistika sohasida institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, investorlar uchun qulay huquqiy va iqtisodiy muhit yaratish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini kengaytirish hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni mustahkamlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

⁴ <https://stat.uz/uz/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



Umuman olganda, transport-logistika infratuzilmasini moliyalashtirishning iqtisodiy-moliyaviy shart-sharoitlarini takomillashtirish investitsion faollikni oshirish, transport tarmoqlarini modernizatsiya qilish, logistika xizmatlari sifatini yaxshilash va mamlakatning xalqaro logistika tizimidagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari transport-logistika infratuzilmasini moliyalashtirish siyosatini takomillashtirish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va sohaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun muhim nazariy hamda amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jalolova M., Sangirova U., Yakubov I., Rahimov H. Economic efficiency of the transport system and logistics in the Republic of Uzbekistan // *Transportation Research Procedia*. – 2022. – Vol. 63. – P. 1061–1066.
2. Yakubov M., Abulov N. Transport logistics of Uzbekistan: The analysis of development potential // *AIP Conference Proceedings*. – 2022. – Vol. 2432. – Art. 030093.
3. Ekhsanov J., Khoshimov E. Establishment of transport logistics hub // *International Journal of History and Political Sciences*. – 2023. – Vol. 3, No. 10. – P. 34–46.
4. Mavlanov I. New approaches to logistics and trade communications in Central Asia // *Xalqaro munosabatlar*. – 2023. – No. 3–4. – P. 45–58.
5. Makhmutullaeva S. Use of logistics system in the development of export potential in Uzbekistan // *CyberLeninka*. – 2023.
6. Vinokurov E. International North–South Transport Corridor and Eurasian connectivity // *Russian Journal of Economics*. – 2022. – Vol. 8, No. 2. – P. 150–167.
7. Zhukovskaya I. F. Logistics in the context of digital transformation of the economy // *CyberLeninka*. – 2024. – Vol. 12, No. 1. – P. 77–85.
8. Notteboom T., Rodrigue J.-P. Port hinterlands, regionalization and corridors // *Port Economics, Management and Policy*. – New York : Routledge, 2020.
9. Rodrigue J.-P. The distribution network of Amazon and the footprint of freight digitalization // *Journal of Transport Geography*. – 2020. – Vol. 88. – Art. 102825.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>